**Budjetdan mablag‘ oluvchi muassasalarni ozik –ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha**
**№ 2/7 - sonli ShARTNOMA**

**2022 yil « 1 » Fevral** **Qo‘kon shahri**

Ikki tomonlama xo‘jalik munosabatlarni ifodolovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yuritivchi **«Productive resultl»** MChJ (keyingi urinlarda «Sotuvchi» deb ataladi) nomidan rahbari **Abidov A** birinchi tomon va ikkinchi tomon O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik xamda o‘z Nizomiga asosan faoliyat yuritivchi **Viloyat 2-sonli ruxiy kasalliklar shifoxonasi** nomidan (kelgusida "Haridor" deb ataladi) rahbari **M.M.Abdullayev** o‘rtalarida kuyidagi maqsadlarda tuzildi.

**1.Shartnoma predmeti**

1.1 "Sotuvchi" "Haridor"ga kuyidagi mahsulotlarni yetkazib beradi: **Ozik ovkat maxsulotlari.**

1.2. Mazkur shartnoma umumiy qiymati **8 250 000 so‘m, ( Sakkiz million ikki yuz ellik ming )00 tiyin** *(raqam va so‘z bilan to‘liq yoziladi)* so‘mni tashkil qiladi.

1.3. Mahsulotlar 2022 yil **Fevral** oyiga quyidagi assortimentda yetkazib beriladi:

| T\R | Mahsulot nomi | O‘lchov birligi | TIF | Miqdori | Narhi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qolipli non 0.5 kg 1-navli yetkazib berish sharti bilan | dona | 9990015024 | 5500 | 1500 | 8 250 000 |
| | **JAMI** | | | | | **8 250 000** |

**Izoh:** Shartnoma muddati bir oydan ortiq bo‘lganda assortiment bo‘yicha olinayotgan mahsulot turlari va narhlari kelgusi oylar uchun talab va ehtiyojdan va narh-navolardan kelib chiqqan holda aloxida spetsifikatsiya xolatida tuzilib ikkala tomon o‘rtasida tasdiqlangandan so‘ng ushbu shartnoma ilova qilinadi va shartnomani ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Ushbuni natijasida shartnomani umumiy summasi o‘zgargan xolatda qo‘shimcha kelishuv orqali shartnoma summasiga o‘zgarish kiritiladi.

**2.Hisob-kitob shartlari.**

**2.1.** Olingan oziq –ovqat mahsulotlari uchun maxsulot spetsifikatsiyasida belgilangan narxda to‘lov jadvali bo‘yicha hisob-kitob qilinadi.

**2.2.** "Xaridor" oldindan 30 % миdorida tulovni amalga oshiradi xamda tuliq xisob – kitobni mahsulot olingandan so‘ng 60 kun ichida schyot fakturalarga asosan pul o‘tkazish yuli bilan amalga oshiradi. Shartnoma bir oydan ortiq muddatga tuzilgach 30 % miqdori oldindan to‘lov jadvaliga asosan xar oyda amalga oshirilib boriladi.

**2.3.**Mahsulotlar uchun narh maxsulot yetkazib berishga da’vogar bo‘lgan korxonalarning tijorat takliflaridan xamda xududdagi o‘rtacha bozor narhlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan taqdim etilgan narhlardan kelib chiqqan xolda taqdim etilayotgan maxsulotlarni sifatini e’tiborga olib o‘zaro tanlov asosida belgilanadi. Sut maxsulotlari uchun narx bozor narxlaridan oshmagan xolda sutni yog‘lilik darajasiga qarab yetkazib beruvchi va iste’molchi o‘rtasida o‘zaro kelishilib belgilanadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshirish va taftish ishlar natijasida yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan narxlar yuqori deb topilsa, ushbu farq "Sotuvchi" zimmasidan qoplanadi.

**3. Mahsulot yetkazib berish:**

**3.1.** "Sotuvchi" shartnomada belgilangan mahsulotlarni kelishilgan taqsimotnomaga asosan budjet mablag‘ oluvchi muassasa manzilgohlariga belgilangan muddatlarda ya’ni **Fevral** oyida yetkazib beradi va transport xarajatlarini o‘z zimmasiga oladi.

**4. Tomonlar huquqi va majburiyatlari :**

**4.1.**"Sotuvchi" mahsulot sifatini tasdiqlovchi xujjat (muvofiqlik sertifikati va sanitariya-gigiyena skrtifikati,go‘sht mhsulotlari uchun veterinariya bulimi xulolsasi va xokozolar) hamda mahsulotdan namuna taqdim etadi va aynan shu namunadagi mahsulotni joylarga yetkazib berilishiga kafolat beradi va xujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirishni o‘z zimmasiga oladi.

**4.2.**"Sotuvchi" "Xaridor" tomonidan ishonch bildirilgan, muassasa rahbari va bosh hisobchi tomonidan imzolangan, hamda yumalok muhr bosilgan ishonch qog‘ozi ko‘rsatgan vakilga mahsulot beradi. Agar "Sotuvchi tomonidan "" Xaridor"ning ishonch qog‘ozi ko‘rsatilmagan mahsulotlarni yoki ishonch qog‘ozida ko‘rsatilmagan mahsulotlarni yoki mahsulotlarni ishonch qog‘ozi belgilangan miqdorda ortiq bergan xollarda bu mahsulotlar uchun "Xaridor" tomonidan xaq tulanmaydi. Shuningdek, "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" sifatsiz yoki sertifikatsiz maxsulotlar yetkazib berilsa bu maxsulotlar "Sotuvchi"ga qaytarib beriladi yoki bu maxsulot uchun xaq tulanmaydi.

**4.3.**"Sotuvchi" yetkazib bergan maxsulotlarini thisob – kitoblarda to‘liq va aniq nomini, mahsulot navini, katerоriyasini va boshka ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to‘liq rekvizitlarini rasmiylashtirishi shart. Tuliq rasmiylashtirmagan hamda mahsulotning sifati. Navi va kategoriyalari ko‘rsatilmagan hisob-varaklar bo‘yicha to‘lov amalga oshirilmaydi. Ushbu holatlar tegishli dalolatnomalar orqali rasmiylashtiriladi.

**4.4.**"Xaridor""Sotuvchi" tomonidan yuborilgan mahsulotni shartnoma shartlari va spetsifikatsiyaga to‘g‘ri kelishini tekshirib qabul qilib olgandan so‘ng olingan mahsulot uchun shartnomada ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishi shart.

**5. Jarimalar qo‘lanilishi**

**5.1.** Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga sifatsiz yoki saqlash muddatilari o‘tib ketgan mahsulotlarni yetkazib kelgan holda "Xaridor" "Sotuvchi"dan bunday mahsulotlarning umumiy qiymati 50 % lekin shartnomaning 1.2. bandida ko‘rsatib utilgan summasining 50 % oshmagan holda jarima qo‘llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

**5.2.** Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga belgilangan mahsulotlar belgilangan muddatlarida yetkazib kelmasa, "Sotuvchi" muddatida yetkazilmagan mahsulotlarni umumiy qiymatini 0.02 % miqdorda har bir muddati o‘tgan kuni uchun "Xaridor"ga jarima to‘laydi.

**5.3.** Qabul qilingan mahsulot uchun shartnomada belgilangan muddat ichida asossiz ravishda to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun qabul qilingan mahsulot qiymatidan "Xaridor" tomonidan 0.02 % miqdorida "Sotuvchi"ga penya to‘lanadi.

**5.4.** Jarimalar to‘lanishi "Sotuvchi"ni va "Xaridor"ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

**6.<Fors-major>**

**6.1.**Shartnomada ko‘rsatilgan shartlar tomonlarga bog‘liq bo‘lmagan favqulodda hollarda buzilsa (ya’ni suv toshqini, yongin,zilzila, boshqa tabiiy ofatlar va xukumatning maxsus qarorlarini bajarish bilan bog‘lik holatlarda) tomonlar javobgar bo‘lmaydi.

**7.Shartnoma muddati**

**7.1.** Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 28 **Fevral** gacha. Ma’lum sabablarga ko‘ra olingan maxsulot uchun o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirish imkoni bo‘lmaganda tomonlarni o‘zaro kelishuviga asosan to‘lov uchun qo‘shimcha vaqt belgilanadi.

**7.2.**Shartnoma qo‘yidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

a) tomonlar o‘zaro yozma kelishuviga asosan;

b) "Sotuvchi" tomonidan yetkazib berilgan mahsulotni sifatsizligi to‘g‘risida "Xaridor" tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilib tegishli xulosa olinganda;

v ) "Sotuvchi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.1,4.2,4.3. bandlari bajarilmaganda;

g) budjetdan mablag' oluvchini xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi natijasida shartnoma summasi kamaytirilishi lozim bo'lgani holda "Sotuvchi" ushbuga rozilik bermagan taqdirda;

d) narxlar o'zgarishi natijasida mahsulotlarning narxi ma'lum sanadan o'zgarishi (kamayishi yoki kupayishi) lozim bo'lgani holda tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda;

**Izoh: b,v,g,d** punktlari bo'yicha shartnomalar "Xaridor" tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

Shartnomaning bekor qilingani to'g'risida "Xaridor" "Sotuvchi"ga yozma ravishda, asoslarini kltirgan holda xat bilan ma'lum kiladi.

**8. Qo'shimcha shartlar**

8.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro xal qilinadi. O'zaro xal qilinmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan Xo'jalik sudlari orqali xal qilinadi.

8.2. "Ta'minotchi" o'z faoliyatini yurgizish uchun lozim bo'lgan xujjatlardan (litsenziya,guvohnoma,sertifikat) "Iste'molchi"ga taqdim etadi.

8.3. Shartnomani bajarilishi uchun taa'luqli xujjatlarni xaqqoniyligi va to'g'riligi uchun ushbu xujjatlarni taqdim etayotgan tomonlar ma'sul va javobgardirlar.

8.4. Budjetdan mablag' oluvchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar bilan ***budjet mablag'lari*** hisobiga tuzilgan shartnomalar faqat ularning ***g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingandan*** so'ng kuchga kiradi.

8.5. Budjetdan mablag' oluvchilar va mahsulot yetkazib yetkazib beruvchilar bilan ***budjetdan tashqari*** mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalar faqat ularning **g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olinganidan** so'ng kuchga kiradi.

8.6. **Shartnomada belgilangan narhlar xar oy O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadigan narxdan kelib chiqib, qo'shimcha kelishuv shartnomasiga asosan o'zgartiriladi.**

## 9. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari :

«Ta'minotchi»
**«Productive resultl» MChJ**
(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil : **Qo'kon shaxar** Navoiy 23 uy 23 xonadon
Tel/faks_+99894 138 2525
x\v **20208000600497544001**
Bank nomi: **Universal bank Quqon bo'l.**
MFO-00973
STIR **303251682**

Rahbar: Abidov A. ______ (imzo)

Bosh xisobchi: ______ (imzo)

M.O'.

«Iste'molchi»
**Viloyat 2-sonli ruxiy kaslliklar shifoxonasi**
(budjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Quqon shaxar,Axillik kuchasi № 4-uy
Tel/faks: **73 543-33-59 73 543-34-44**
Budjetdan mablag' oluvchi STIRi: **201270023**
**sh\x 100021860304057073201054001**
OKONX : **91511**
G'aznachilik bo'linmasi nomi: **Quqon shaxar G'aznachilik bulinmasi**
G'azna x/v **23402000300100001010**
Bankning nomi: **Toshkent sh. Markaziy bank XKKM**
MFO : **00014**
G'aznachilik bulinmasi STIRi **201122919**

Rahbar: M.M.Abdullayev ______ (imzo)

Bosh xisobchi ______ (imzo)

M.O'.

**Xuquqiy xulosa:**

Men ushbu shartnomani xuquqiy ekspertizadan utkazdim. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi hamda shartnomada nazarda tutilgan taraflarning javobgarligi va nizolarni hal etish tirtibi yuqorida zikr etilgan qonunchilik talablariga mos keladi.

**Viloyat 2-sonli ruxiy kasalliklar Shifoxonasi xuquqshunosi:** **F.G.Xakimov**

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

*Andijon viloyat Jalaquduq tuman SEO va JSB*

(санитария-эпидемиологик хулосани берган муассасанинг номи)

*UZ. AMT. 07. MAI.№ 638*

(аккредитация гувоҳномасининг олинган йили ва санаси)

**№ 374770**

# САНИТАРИЯ-ЭПИДЕМИОЛОГИК ХУЛОСА

20*21* йил «*11*» *dekabr* дан 20*24* йил «*11*» *dekabr* гача ҳақиқий ҳисобланади.

Ушбу хулоса билан: *Productive Result MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan.*

(ишлаб чиқарувчи, келиб чиқиш давлати, олиб келувчи)

*San QM 0366-19 "Non va makaron maxsulotlari havfsizligi togrisida"gi MTR 008 18.02.2020 TI 303251682-12-2021*

(импорт, маҳаллий маҳсулотларга алоқадор меъёрий ёки асословчи ҳужжатлар)

Ишлаб чиқарилган (олиб келинган) маҳсулот: *Qolipli non 1 nav bug'doy unidan 0.5 kg.*

(маҳсулот номи, миқдори)

*( seriyali ichlab chiqrish uchun)*

*San. kimyoviy laboratoriya tekshiruvlari bo'yicha San QM 0366-19 talabiga javob beradi. San.gig. laboratoriya tekshiruvlari bayonnomasi № 202 11-dekabr 2021 yil. Radiologiya laboratoriya tekshiruvlari bayonnomasi № 278 10-dekabr 2021 yil. Mahsulot aniqlangan ko'rsatkichlar bo'yicha San QM 0366-19, "Non va makaron maxsulotlari havfsizligi tog'risida"gi MTR 008 18.02.2020*

(ўтказилган лаборатория текширувлари баённомалари, натижалари)

Санитария қоида ва меъёрлари талабларига ЖАВОБ БЕРАДИ.

Хулоса олувчи: *Productive Result MCHJ*

(муассаса номи ва юридик манзили)

*O'zbekiston Respublikasi Fargona viloyat Dangara tuman Navbaxor ko'chasi 94*

(олиб келувчининг юридик манзили ёки маҳсулот ишлаб чиқарувчининг манзили)

Қўлланиладиган, ишлатиладиган соҳа: *Oziq-ovqat maqsadida.*

Ишлатиш, ташиш, сақлаш ва хавфсизлигига оид шарт-шароитлар *Sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilgan holda.*

Махсус белгилар: *Sanitariya –epidemiologik hulosa nusxasi hulosa berilgan muassasa muxri bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.*

*A.Xolmatov*

(санитария-эпидемиологик хулосасини берувчи муассаса раҳбарининг фамилияси ва исми, шарифи)

М.Ў.

20*21* йил «*11*» *dekabr*